

## PEDAGOGIK MUOMALA VA SHAXS KAMOLOTI

**Melikuziyeva Mavluda Abduxafizovna**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** maqlada muomalaning ikki turi haqidagi nazariy ma’lumotlar, muomala madaniyatining xalqimizning bolajonligi, oilani muqaddas bilishida namoyon bo‘lishi va pedagogik muomalaning shaxs kamolatidagi o‘rni aks ettirilgan.

**Kalit so‘zlar:** muomala, diologik, monologik, pedagogik muomala, shaxs, pedagogik faoliyat

**Аннотация:** в статье отражены теоретические сведения о двух типах поведения, проявлении культуры поведения в детстве нашего народа, святости семьи, роли педагогического поведения в развитии личности.

**Ключевые слова:** обращение, диалог, монологическое, педагогическое обращение, личность, педагогическая деятельность.

**Abstract:** the article reflects the theoretical information about two types of behavior, the manifestation of the culture of behavior in the childhood of our people, the sanctity of the family, and the role of pedagogical behavior in personal development.

**Key words:** treatment, dialogue, monologic, pedagogical treatment, person, pedagogical activity

Nazariy ma’lumotlarga ko‘ra muomala jarayonining quyidagi ikki tipi mavjud:

- dialogik muomala. Diologik muomilada hamkorlik ikki tomonning ijrochiligi asosida quriladi, ya’ni savol – javob tariqasida;

- monologik muomala. Monologik muomala turida hamkorlik bir tomonning ijrochiligi asosida quriladi. Zero, har ikki muomala madaniyati, eng avvalo, xalqimizning bolajonligi, oilani muqaddas bilishida namoyon bo‘ladi. Masalan, notanishlar o‘zaro salomlashib so‘z boshlashlari, kattalar gapirganda eshitib turishlik, do‘sstar uchrashganda oila, bolalarni hol-ahvolini so‘rash kabilar muomila madaniyatining eng oddiy ko‘rinishlaridir. Albatta bu ko‘rinishlar oiladan boshlanishi va shaxs kamolatida alohida o‘ringa egaligi bugungi kundagi tarbiya jarayoniga bog‘liq.

Shaxsning kamolati oilada boshlansada maktab faoliyatida davom ettadi. Xalqimizda “Ustoz - otangdek ulig” maqoli bezizga aytilmagan. Ota-onadan ko‘ra ko‘proq ustozga bo‘lgan taqlid bolalarda ustunlik qiladi. Bu borada pedagogning muomalasi tarbiya vositasi vazifasini o‘taydi. Pedagogning muomala madaniyati ham, muomala odobi ham bir xil tarbiyaviy ta’sirga egadir. Zero, pedagogik faoliyat pedagogning bolalar bilan yaxshi munosabati jarayonida, ishni demokratik tashkil etish va birqalikdagi ijodiy faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik muomala pedagogik mahoratning shakllanishida eng muhim vositalardan biri bo‘lib, u pedagogik faoliyatning asosiy quroli hisoblanadi. Qator pedagog va psixolog olimlar bu sohada olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasi o‘laroq muomala o‘qituvchi faoliyatida katta ahamiyat kasb etishini isbotlaganlar. Pedagog muomala orqali o‘quvchining shaxsi haqidagi axborotni o‘zlashtiradi. Pedagog bevosita muomala orqali shaxsning xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan yorqin va eng ta’sirchan tashqi belgilarni qayd eta oladi.

Ilg‘or psixolodlarning kuzatishlaridan kelib chiqib, pedagog o‘quvchilar bilan muomala qilar ekan, shaxsning xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan juda mayda ko‘rinishlarni ham anglab olishga qodir bo‘lishlari, shaxsning xulq-atvoridagi bu ko‘rinishlar sirdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo‘lmasligi, lekin kelgusida shaxsda sodir bo‘ladigan, uni tushunish uchun juda muhim bo‘lgan zarur ichki jarayonlardagi ko‘rinishlarning alomatlari bo‘lishi ham mumkinligini bilib oladi-degan

xulosaga to‘xtaniladi. Bu hol shaxsni chuqur tushunish imkonini berib, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo‘lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi.

Ilg‘or pedagoglarning fikricha pedagogning bolalar bilan bo‘lgan bevosita muomalasi jamoadagi yoki ayrim o‘quvchilardagi biron bir voqeanning rivojlanish jarayonida o‘rganish zarur bo‘lganda ro‘y berayotgan hodisalar va jarayonlarning sabab-oqibat aloqalarini payqab olishdan, ularning tuzilishi, paydo bo‘lishi va rivojlanishini kuzatish, bundan tashqari, bu hodisalar va jarayonlarning yanada takomillashuvi to‘g‘ri ketayotganligini ma’lum darajada oldindan aytib berish kerak bo‘lganda ham zarurdir.

Maktab amaliyotida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan do‘stona pedagogik muomala jarayonida o‘quvchi shaxsida quyidagilar shakllanadi:

- o‘z - o‘zini va o‘zgalarni hurmat qilish;
- o‘z - o‘zini va boshqalar faoliyati, xulqini baholash;
- o‘z - o‘zini nazorat va o‘zgalarni nazorat qilish;
- o‘z - o‘zini boshqarish (ham bilish faolyaitida, ham xulq atvorda)
- o‘z - o‘zini takomillashtirish va yangi fazilatlarni egallash. Demak, pedagogning do‘stona muomalasi o‘quvchi shaxsi bilan o‘qituvchi shaxsi o‘rtasidagi bilimlarni puxta o‘zlashtirishni ta’minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qladi. Pedagogik jarayonda sodir bo‘ladigan muomala odobi pedagogning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasini aks ettiradi. Pedagogning pedagogik kasb egasi sifatida o‘ziga, o‘z kasbiga, o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namayon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik faoliyat jarayonida, o‘quvchi shaxsiga asosan - pedagogning muomalasi ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchining shaxsi, bilimi va umuman muomilasi o‘quvchi shaxsiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy qurol bo‘lib hisoblanadi. Agar o‘quvchi pedagog shaxsini o‘ziga qabul qilmasa, uning ta’siriga berilmaydi, qaysarlik qiladi, uni hurmat qilmaydi. Zero, haqiqiy pedagog o‘quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta’sir ko‘rsata oladigan kishidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

- 1.** R. Mavlonova, B. Normurodova, N. Rahmonqulova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma «Tib-kitob» nashriyot. Toshkent-2010
- 2.** Aminovna, Feruza Turakulova. "Bolajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda “Ustoz-shogird” an'anaside foydalanish tizimini takomillashtirish texnologiyasi." Ижтимоий фанларда инновация онлайн илмий журнали (2022): 191-194.